

KECHA VA KUNDUZ ROMANIDA OBRAZLAR TALQINI

Nurmuhammadova Farangniz Salohiddin qizi

Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti Pedagogika fakultetining 1-kurs guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14970467>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi asosiy g'oyalarga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada "Kecha va Kunduz" romanidagi ijtimoiy muammolar, millat taqdiri va ayollar huquqsizligi masalalari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy muhit, Xalqning ruhi, Ilm va ilmsizlik, Jamiat, Oilaviy munosabatlar, Madaniy an'analar, Obrazlar tahlili, Tarjima va madaniy moslashuv.

INTERPRETATION OF IMAGES IN THE NOVEL "NIGHT AND DAY"

Abstract. This article focuses on the main ideas in Cholpon's novel "Night and Day". The article analyzes social problems, the fate of the nation and the rights of women in the novel "Night and Day".

Keywords: Social environment, People's spirit, Knowledge and ignorance, Society, Family relations, Cultural traditions, Analysis of images, Translation and cultural adaptation.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗОВ В РОМАНЕ «НОЧЬ И ДЕНЬ»

Аннотация. В статье рассматриваются основные идеи романа Чолпон «Ночь и день». В статье анализируются социальные проблемы, судьба нации и права женщин в романе «Ночь и день».

Ключевые слова: Социальная среда, Народный дух, Знания и невежество, Общество, Семейные отношения, Культурные традиции, Анализ изображений, Перевод и культурная адаптация.

Kirish

Adabiyot – xalq ruhining aksidir. Har bir badiiy asar zamon ruhi, jamiyat hayoti, insoniy kechinmalar va ijtimoiy muammolarni o'zida aks ettiradi. Ayniqsa, tarixiy burilish davrlarida yozilgan asarlar xalq taqdiri, uning orzu-umidlari va fojialarini o'zida mujassam etadi. O'zbek adabiyotining eng yorqin namoyandalaridan biri bo'lgan Abdulhamid Cho'lpon ham o'z asarlari orqali xalqning ma'rifatga intilishi,adolatsizlik va jaholat botqog'idan chiqish yo'llarini ochib berishga harakat qilgan.

Asosiy qism

“Kecha va Kunduz” – Cho‘lpon tomonidan yozilgan o‘zbek adabiyotining klassik asari hisoblanadi. Asarda XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida O‘zbekistonda sodir bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar haqida fikr yuritiladi. Adib XX asr boshlarida yashagan o‘zbeklarning turmush tarzini, ijtimoiy va siyosiy holatini o‘zgacha uslubda tasvirlaydi. Unda ikki dunyo – eski jamiyat va yangi, o‘zgarishlar davri orasidagi to‘qnashuvlar tasvirlanadi. Asarda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, oilaviy munosabatlar va ko’plab ijtimoiy masalalar tilga olinadi hamda o‘zbek adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari, asar qahramonlarining ichki dunyosi va jamiyatdagi o‘zgarishlar aks ettiriladi.

Cho‘lponning "Kecha va Kunduz" romani – bu shunchaki bir oilaning yoki bir ayolning hayoti emas, balki butun o‘zbek xalqining fojiasini aks ettirgan asardir. Ushbu romanda adib o‘sha davrdagi jamiyatning asosiy illatlari – ilmsizlik, ayollar huquqsizligi, amaldorlarning poraxo‘rligi, xalqning o‘z dushmanini tanimay, jadidlarga qarshi chiqishi kabi dolzarb masalalarni ko‘taradi.

Asar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, millat taraqqiyoti uchun muhim saboqlarni bera oladigan kuchga ega. Asarning bosh qahramoni Zebi timsoli orqali Cho‘lpon butun xalqning fojiasini tasvirlaydi va milliy uyg‘onish uchun ilm va ma’rifatning qanchalik muhim ekanini ko‘rsatadi. Cho‘lpon o‘zbek ramonnavislarining yirik vakillaridan biri bo‘lib, uning ijodida milliy mustaqillik, ma’rifat va ijtimoiy tenglik masalalari alohida o‘rin tutadi.

Uning “Kecha va Kunduz” romani o‘zbek ayolining taqdiri, ilmsizligi va jamiyatda ayolning o‘rni haqida. Asarda ayollarning ma’rifatsizligi, ilmsizligi o‘z huquqlarini bilmasligi ularning jamiyatda to‘laqonli ishtirok eta olmasligiga sabab bo‘lishi ta’kidlanadi. Cho‘lpon xalqning og‘riqli muammolarini yoritgan, uning asarlarida ijtimoiyadolat va erkinlik g‘oyalari aks etgan. Millatni uyg‘otish – uyg‘onganlarning vazifasi. Shu jihatdan olganda, Cho‘lponning ijodi xalq ongini uyg‘otishga, milliy ruhni tiklashga qaratilgan edi. Uning “Kecha va kunduz” romanida ayol qismati orqali jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik muammosi yoritilib, inson erkinligi va ma’rifatga intilish g‘oyasi ilgari suriladi. Adibning publisistik maqolalari esa xalqning ezgu orzu-umidlarini, dard va tashvishlarini aks ettirib, jamiyatni taraqqiyot sari yetaklashga qaratilgan.

Cho‘lpon o‘z asarlari bilan millat tafakkurini o‘zgartirishga,adolat va ozodlik yo‘lida kurashga undagan ijodkorlardan biri hisoblanadi. Bu romanda xalqning ilmsizligi din va dunyoviy ilmlardan ta’lim olmagani sababli jadidchilarining qoralangani va xalqning jabr ko‘rgani yoritilgan.

Hamda boylar va amaldorlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan mudhish ishlar ko‘rsatilgan. Eng achinarlisi, bu zamonda ya’ni (romandagi zamonda) ayollarga nisbatan nohaqlik qilinishi, g‘arb ayollarini o‘zbek ayolidan ustun ko‘rsatilishidir. Bunga kim aybdor? ayollarmi? Albatta, yo‘q.

Bularning hammasiga ilmsizlik botqog‘iga botgan xalq va hatto gazeta o‘qishni bilmaydigan mingboshi, ellikboshi va hamda ayollarga past baho beradigan dinni faqat namoz o‘qish deb biladigan, ro‘zg‘or bilan ishi yo‘q so‘fi kabilar aybdor emasmi?

Bu romanni o‘qigan odamlarning aksari Zebi obraziga e’tibor qaratgan. Lekin bu yerda e’tibor qaratish kerak bo‘lgan asosiy omil bu Zebining qismati emas undan ham muhim qismatlar bor. Millat qismati. Asar qahramoni Zebi. U jamiyatdagi ayollarga nisbatan mavjud qarashlarga qarshi turishga intiladi, ammo shu bilan birga, an’analar va ijtimoiy cheklovlar uni chegaralab turadi. Zebi obrazi orqali ayollarning ilm olishga, o‘z huquqlarini anglashga ehtiyoji borligini ochib beradi.

Cho‘lponning publisistik maqolalarida ham aynan shu masalalar ilgari surilib, xalqning dard-u tashvishlari yoritiladi. Adib o‘z asarlari orqali ijtimoiy tengsizlikka qarshi chiqib,adolat va erkinlik g‘oyalarini ilgari suradi. Shu tariqa, “Kecha va Kunduz” romanidagi ayol qismati orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolar yoritiladi va milliy ongning uyg‘onishiga xizmat qiluvchi g‘oyalar ilgari suriladi. Cho‘lpon – o‘z davrining eng ilg‘or ziyolilaridan biri bo‘lib, xalqni ilmga, erkinlikka va taraqqiyotga intilishi yo‘lida jon fido qilgan shoir va yozuvchi edi. Uning “Kecha va Kunduz” romani nafaqat ayol taqdiri, balki butun millatning fojiaviy qismati, ijtimoiy adolatsizlik va ilmsizlik botqog‘iga botgan jamiyatni aks ettiruvchi asar sifatida yuksak baholanadi. Aksariyat kitobxonlar asarni Zebi obrazi orqali tushunishga harakat qilishsa-da, aslida romanning eng katta g‘oyasi – xalqning jaholat botqog‘ida qolib ketgani, siyosiy va ijtimoiy adolatsizlikning hukmronligi hamda milliy ruhning ezilganligi haqida.

Cho‘lponning asari XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi O‘rta Osiyo jamiyatning ilmga, taraqqiyotga va ma’rifatga yot qarashlari natijasida qanday ahvolga tushib qolganini ochib beradi.

Mingboshi, ellikboshi kabi amaldorlarning savodsizligi va dunyoqarashining torligi ularning faqat mansab va mol-dunyoga berilib ketishiga sabab bo‘lgan. Xalq esa din niqobi ostidagi johillik qurboni bo‘lib, o‘z huquqlarini bilmagan, na siyosiy, na ijtimoiy jihatdan uyg‘onish uchun harakat qilmagan. Jadidchilar esa aynan shu holatni tuzatishga intilgan bo‘lsalarda, o‘z xalqi tomonidan qoralangan, hatto dushmanga chiqarilgan.

Bu o‘zbek xalqining o‘sha davrdagi eng katta fojiasi – ilm va ma’rifatdan uzoqlashgan jamiyat o‘zining haqiqiy dushmanini taniy olmagani, o‘z ozodligini qo‘ldan chiqarib, mustamlakachilik va zo‘ravonlik qurbaniga aylangani.

Romanda Zebi va boshqa ayollarning huquqsizligi xalqning ma’naviyatidagi xastalikni aks ettiruvchi asosiy belgilaridan biri sifatida ko‘rsatilgan. Mingboshi va ellikboshi kabi erkaklar ayollarni shunchaki mol-mulk, xizmatkor sifatida ko‘radi va ularning hayoti ustidan to‘liq hukmronlik qiladi. G‘arb jamiyatida esa ayollarga ilm olish, jamiyat hayotida ishtirok etish imkoniyati berilgan, shuning uchun ham ular o‘zini rivojlantira olgan. Shuning uchun ham Zebi va boshqa ayollar fojiali qismatga duch kelgan. Erkaklar mansab va mol-dunyo ortidan quvadi, millat esa yemiriladi... Mansabdor erkaklar o‘z lavozimlari uchun har qanday pastkashlik qilishga tayyor – ular o‘z yerlarini sotadi, o‘z xalqini sotadi, hatto o‘z xotinini ham sotishga tayyor bo‘ladi.

Bu holat millatning axloqiy tanazzulga yuz tutganini, xalqning ich-ichidan yemirilganini ko‘rsatadi.

Asarning asosiy xulosasi – millat qismati.

Asarning eng asosiy g‘oyasi – millat faqat ilm va ma’rifat orqali har qanday qiyinchiliklardan qutulishi mumkin. Bu asar bugungi kunda ham dolzarb, agar jamiyat rivojlanishini istasa, ayollarni ilmli qilish, ularga erkinlik berish va erkaklarni faqat mansab uchun emas, xalq uchun ishlaydigan qilib tarbiyalash kerak."Kecha va Kunduz" romani o‘zbek jamiyatining ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarini yoritishda, yosh avlodning o‘zligini anglashdagi kurashini tasvirlashda katta ahamiyatga ega. Bu asar nafaqat badiiy, balki tarixiy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo‘lib, o‘z davrining ruhiyatini, o‘zgarishlarni va kelajakni tasvirlashda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa

Abdulhamid Cho‘lponning "Kecha va Kunduz" romani o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin tutadi. Asarda xalq va jamiyat hayotidagi ziddiyatlar, mehnatkash xalqning, xususan, xotin-qizlarning og‘ir hayoti jonli voqealar va yorqin obrazlar orqali ta’sirli tasvirlangan. Romandagi har bir qahramon, bosh obrazdan tortib epizodik personajlargacha, badiiy-tasviriy vositalar yordamida yorqin va ishonarli ifodalangan. Asarda "kecha" va "kunduz" metaforalari orqali o‘tmish va kelajak, zulmat va yorug‘lik, umidsizlik va umid kabi tushunchalar ramziy ma’noda aks ettirilgan. Bu roman o‘zbek xalqining tarixini, uningadolat, erkinlik va taraqqiyotga intilishini chuqur tushunishga yordam beradi.

REFERENCES

1. Abdulhamid Cho'lpon. "Kecha va Kunduz" – Ziyouz.com.
2. "Abdulhamid Cho'lponning 'Kecha va Kunduz' romanidagi ijtimoiy-insoniy munosabatlar lisoniy tahlil ob'ekti sifatida" – Samxorfil.uz.
3. "Kecha va Kunduz" asarining psixologik tahlili – Azkurs.org.